

ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR NUTQINI SHAKLLANGANLIK HOLATINI EKSPERIMENTAL O'RGANISH METODIKASI

Begaliyeva Farangiz Farxod qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini shakllanganlik holatini o'rganish mazmuni yoritiladi

Kalit so'zlar: Maxsus ta'lim, pedagogik texnologiyalar, o'quv faoliyati, motivlash, o'yin, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar lug'atini eksperimental o'rganish jarayonida bolalar nutqini alohida o'rganish emas, balki bir butun, yaxlit o'zaro aloqadorlikda tadqiq qilish imkonini beruvchi tizimli-strukturali yondashuv tamoyiliga tayanildi. Shuningdek, bolalarning yosh va intellektual (aqliy), psixologik xususiyatlarini hisobga olish, rivojlanish, individual, differensial (tabaqalangan), umumiydan xususiya, soddadan murakkabga, tizimli va yaxlit yondashuv tamoyillariga ham tayanildi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar lug'atini eksperimental o'rganishda biz S.N.Silantevaning metodik materiallariga asoslandik. Lug'at boyligini tekshirishda bolalarning barcha faoliyat turi bo'yicha o'quv rejasi talablariga javob beruvchi va bolalarga tushunarli topshiriqlarni tanladik. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar lug'atini eksperimental o'rganish jarayonida Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar lug'atining rivojlanganlik darajasini o'rganish 3 ta yo'nalishdagi topshiriqlar tizimi asosida amalga oshirildi:

1.Aytilgan predmetlarni ko'rsatish, nomlash: non, olma, ko'ylak, shim, eshik, oyna, kitob, ruchka, it, mushuk, bo'ri, ayiq, avtobus, mashina, qo'g'irchoq, ota, ona, singil, uka, oshpaz, shifokor, sabzi, piyoz, maktab, ko'cha, oshxona, ustaxona qani?, daftarni ko'rsat, dumaloq shakldagi mevalarni, to'rtburchak shakldagi predmetlarni, o'zingga tegishli kiyimlarni, narsalarni ko'rsat topshirig'i.

2. Gavda qismlarini (qosh, yuz, burun, soch, qo'l, bilak, oyoq, bosh)ko'rsatish, aytish topshirig'i

3. Fe'lli lug'atni tekshirish.

Bolaga harakat bajarilayotgan syujetli rasmlar ko'rsatiladi. Nima qilyapti? Yoki nima qilyaptilar? va guruhlar bo'yicha mazmuni murakkablashgan rasmlar bo'yicha savollar beriladi.

Nutq materiali: Bola uxlayapti. Bola ovqat yeyapti. It vovvullayapti. Samolyot uchayapti. Bolalar sakrayapti. Bolalar suvda cho'milyapti. Qushlar uchib ketyapti. Bola yuguryapti. Mavzuli rasmlar namoyish etiladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqini shakllanganlik holatini eksperimental o'rganish natijalari.

1. Aytilgan predmetlarni ko'rsatish, nomlash: non, olma, ko'ylak, shim, eshik, oyna, kitob, ruchka, it, mushuk, bo'ri, ayiq, avtobus, mashina, qo'g'irchoq, ota, ona, singil, uka, oshpaz, shifokor, sabzi, piyoz, maktab, ko'cha, oshxona, ustaxona qani?, daftarni ko'rsat. dumaloq shakldagi mevalarni, to'rtburchak shakldagi predmetlarni, o'zingga tegishli kiyimlarni, narsalarni ko'rsat kabi topshirig'ini 50% (10 nafar) eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar sekin, o'ylanib bajardilar, 30% (6 nafar) eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar topshirig'ini yordam asosida bajardilar va qolgan 20% (4 nafar) eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar aytilgan predmetlarni ko'rsatish, aytishda xatoliklarga yo'l qo'ydilar. Nutqi me'yorida rivojlangan 100% (20 nafar) bolalar topshirig'ini to'g'ri bajardilar .

2. Gavda qismlarini (qosh, yuz, burun, soch, qo'l, bilak, oyoq, bosh)ko'rsatish, aytish topshirig'ini 50% (10 nafar) eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar sekin, o'ylanib bajardilar, 30% (6 nafar) eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar topshirig'ini yordam asosida bajardilar va qolgan 20% (4 nafar) eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar predmetlarni nomlashda xatoliklarga yo'l qo'ydilar. Nutqi me'yorida rivojlangan 90% (18 nafar) bolalar topshirig'ini to'g'ri bajardilar va 10% (2 nafar) bolalar topshirig'ini o'ylanib bajardilar.

3. Fe'li lug'atni tekshirish.

Bolaga harakat bajarilayotgan syujetli rasmlar ko'rsatiladi. Nima qilyapti? Yoki nima qilyaptilar? va guruhlar bo'yicha mazmuni murakkablashgan rasmlar bo'yicha savollar beriladi.

Nutq materiali: Bola uxlayapti. Bola ovqat yeyapti. It vovvullayapti. Samolyot uchayapti. Bolalar sakrayapti. Bolalar suvda cho'milyapti. Qushlar uchib ketyapti. Bola yuguryapti. Mavzuli rasmlar namoyish etiladi. eshitishda nuqsoni bo'lgan 30% (6 nafar) bolalar faoliyat nomlarini aytib bera olmadilar, 30% (6 nafar) eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar topshiriqni yordam asosida bajardilar va 40% (8 nafar) eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar topshiriqni sekin, o'ylanib bajardilar, Nutqi me'yorida rivojlangan 90% (18 nafar) bolalar faoliyat nomlarini to'g'ri nomladigan, qolgan 10% (2 nafar) bolalar esa sekin o'ylanib javob berdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Головчин Л.А. Дошкольная сурдопедагогика. – М.: Владос, 2001.
2. Maktabgacha tarbiya yoshidagi zaif eshituvchi bolalarni o'qitish va tarbiyalash dasturi. Tuzuvchi: Rasulova N.A. – Toshkent: RO'MM, 1993.